



O'zbekiston Respublikasi m. Maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

maktabgacha va maktab ta'limi tasarrufidagi  
mektabsiz maktabgacha va maktab ta'lim tashkiloti

**MUAMMOKOLOGI**

ning

sog'lashtirish davri 2025-yil  
yani, iyul va avgust oylari uchun

**MUAMMOKOLOGI**



## **Maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining yozgi sog‘lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari:**

Yoz davrida bolalarning ruhiy salomatligini ta’minlash va ularning to‘liq va o‘z vaqtida rivojlanishiga ko‘maklashish. Yos davrida pedagoglarni o‘qitish sohasidagi psixologik nazariyalar va tadqiqotlar hamda bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

Psixosomatik kasallikkarning oldini olishda hissiy va psixologik qulaylikni yaratish.

Tarbiyachilarni psixologik jihatdan o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatları bilan tanishtirish.

Tarbiyachilarning o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun barqaror motivatsiyasini rivojlantirish hamda namoyon qilishi uchun sharoit yaratish va aloqa to‘sıqlarini yengib o‘tish. Bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha ota-onalarning psixologik malakalarini oshirish.

Yoz davrida sog‘liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish.

Ta’lim-tarbiyaning mumkin bo‘lgan natijalarini aniqlash maqsadida bolalarning individual xususiyatlari, shaxsiyatini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar olish.

Ota-onalarga bola, uning shaxsiy, oilaviy munosabatlarning xususiyatlari haqida qo‘srimcha ma’lumot berish.

Bolalarning aqliy rivojlanishining individual xususiyatlarini aniqlash (o‘zini o‘zi qadrlash, da’vo qilish darajasi, shaxsiy xususiyatlar va fazilatlar, hissiy ko‘rinishlarning xususiyatlari; barqarorlik, e’tiborni anglash)

Bolalarda kattalar va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish, tinglash va eshitish qobiliyatini shakllantirish, o‘zini va boshqa odamlarni qabul qila olishni o‘rgatish.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi vazifalari har kuni barcha faoliyat turlari va rivojlantirish markazlarida hal qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning eng asosiy faoliyati bo‘lgan o‘yin faoliyatida ham shu vazifalar samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun, yoz davrida bolaning yoshi, o‘yin malakalarini shakllantirishga qaratilgan ijodiy o‘yinlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Kichik guruh tarbiyachilari bolalarning bosh va qo‘srimcha rollarni ijro etganda o‘zaro hamkorlikda bo‘lishlariga ahamiyat berishlari, katta guruhlarda esa o‘yin syujetini yaratishga, syujetli-rolli o‘yinlarda faoliyot ko‘rsatishga e’tibor berishlari kerak.

Kattalaming o‘yin jarayonidagi ishtiroki uyatchan, tortinchoq bolalarda liderlik (yetakchilik) sifatlarini shakllantirishga imkon bersa, o‘ziga yuqori baho beradigan bolalar esa o‘zaro kelishib birgalikda bajarishga, ikkinchi darajali rollarni ijro etishga undaydi.

Yozgi sog‘lomlashtirish davrida bolalarni yo‘l harakati va hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish va ularni mustahkamlashga katta e’tibor berish lozim. Tarbiyalanuvchilar biror ertak qahramonlari yordamida yoshlari mos ravishda yo‘l belgilari bilan tanishishlari, ko‘chada, uyda, jamoat joylarda, tabiat qo‘ynida o‘zlarini qanday tutishlari, xavfsizlik qoidalari qanday rioya qilishlari lozimligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lib boradilar.

Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalarning moslashuvini tashkil qilish bo‘yicha psixologlarning tavsiyalarini inobatga olish hamda “Onam bilan birga” moslashuv guruhlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi Farmonida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom, jismoniy barkamol rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish, sog'lomlashtirish, chiniqtirishga qaratilgan amaliy ishlarni oshirish, o'quv yili mobaynida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash ishlarini samarali tashkil etish uchun vazifalar qaratish zarur.

Ushbu davrda bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlar qiziqarli, qiziqarli va ko'tarinki o'tishini ta'minlash, turli ko'ngilochar tadbirlar, kichik sayrlarni muntazam shakllantirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, quyosh, havo, suv muolajalarini o'rinali qo'llash, charchoqyozdi mashqiga qarish, shaxsning shaxsning kun tartibiga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.

Mazkur metodik tavsiyada barcha turdagи maktabgacha tashkilotlarda tarbiyalanayotgan bola(*tarbiyanuvchi*)lar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrida

(1-iyundan 31-avgustgacha) o'tkaziladigan sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish ko'rsatilgan.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida bolalar 1-iyundan 31-avgustgacha olgan bilimlarida yuzaga kelgan bo'shliqlarini inobatga olgan holda, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (3-ilovcha namunaviy yillik mavzuli reja)ga muvofiq ta'limgardagi tarbiya jarayoni umumiy guruhlarda va erkin o'yin faoliyati orqali rivojlantirish, o'tkaziladigan tashkilot (3-ilova. Namunaviy yillik mavzuli reja) tashkil etiladi va tarbiyalanuvchilar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini tashkilot qilishida tashkilot hududiy joylashuvi, bola yosh hususiyatlari va shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv inobatga olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish ish rejasini oshiriladigan tashkiliy, metodik, sog'lomlashtirish hamda nazoratga doir chora-tadbirlar rejasini tashkilotning narbatiga olinadi. Tashkilotning kengashida tasdiqlanadi.

Tashkilotning yozgi sog'lomlashtirish davri ish rejasida ta'limgardagi tarbiya, sog'lomlashtirish-chiniqtirish, hamkorlik ishlari, sport va ko'ngilochar tadbirlari (obodonlashtirish, moddiy-texnik bazani boyitish) aniq belgilab olinadi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida (yunning birinchi haftasida) pedagog xodimlar "Bolalar xavfsizligi va sog'lig'ini muhofaza qilish" yo'riqnomasidan tanishtiriladi. Tashkilot direktori o'rinosari, hamshira, jismoniy tarbiya yo'riqchisining yozgi davr uchun ish rejasini ishlab chiqiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari samarali o'tkazilishi maktabgacha ta'limgardagi tashkiloti jamoasining o'z vaqtida va puxta tayyorgarlik ko'rishiqliy qilishi.

Bu davrda bolalarning sog‘ligini mustahkamlash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib maydonchalarni va rivojlantirish muhitini tayyorlash, barcha tadbirlarni bolalarni rivojlanishi va ularni chiniqtirishga qaratish lozim.

## **Yozgi sog‘lomlashtirish davrining maqsad va vazifalari**

### **Yozgi sog‘lomlashtirish davrining maqsadlari:**

Bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va mustahkamlash; jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash, ularning kognitiv, kommunikativ, psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash; sog‘lomlashtirish va chiqniqtirish tadbirlarini tashkil etish; tabiat qo‘ynida dam olish orqali ijobiy emotsiyal holatini yaxshilash va ularni hayotga faol tayyorlash; bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish; yozgi davrda maktabgacha yoshdagи bolalarning harakat faolligini, ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta’minlash; sayr va kuzatish jarayonlarida muammolarni hal qilish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish; bolalarning rivojlanish sohalari va tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonining samarali shakli va usullaridan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

### **Yozgi sog‘lomlashtirish davrining vazifalari:**

bolalarting salomatligi va jismoniy rivojlanishini yaxshilash, ularni axloqiy tarbiyalash, qiziquvchanlik va bilim faolligini rivojlantirish, madaniy-gigiyenik va mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish; bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni, bolalarning sayrda mustaqil, ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish; bolalarning sog‘lomlashtirish va dam olishlarini ta’minlash; tabiiy omillardan (*havo, quyosh, suv*) keng foydalanish hisobiga bolalarni sog‘lomlashtirish, chiniqtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish; tabiat qo‘ynida (*gulzor, bog‘, tajriba maydonchasi, ekologik yo‘lakcha*) mehnatni tashkil etish, bilish faoliyati, turli xil ta’limiy-tarbiyaviy va harakatli o‘yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, samarali ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (*sharoit*)dan foydalanish; sog‘lom turmush tarziga odatlantirish; sog‘lom va xavfsiz ovqatlantirish; o‘quv yili davomida olingan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish; ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish; xavfsizlik xatti-harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish;

ota-onalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, sog'lomlashtirish tadbirlarini uyda davom ettirishlari bo'yicha pedagogik va sanitariya-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birqalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning dam olishi va jismoniy rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdir.

### **Yozgi sog'lomlashtirish davrining asosiy ustuvor yo'nalishlari:**

jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari;  
madaniy va dam olish tadbirlari.

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari:**

o'yin va jismoniy tarbiya maydonchalarini SanQvaM talablari asosida jihozlanishi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilinishi;

yozgi davr uchun ish rejasi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga xavfsizligini ta'minlagan holda ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish, bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar, ichimlik bilan ta'minlash rejimini tashkil etish, davolash-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar;

o'yin maydonchalarida joylashgan qum qutilaridagi qum gigienik talablarga javob beradigan yangi qum bilan har yili (*bahorda*) to'liq almashtirish;

qumning ifloslanishini oldini olish uchun yopiq holda saqlanishi (qopqoqlar yoki polimer bilan, plyonkalar, tentlar yoki boshqa himoya vositalari).

qum va bolalar maydonchasini o'z vaqtida tozalash, namlantirish va o'yinchoqlar bilan ta'minlash uchun sharoit yaratish;

bolalar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

Sport, harakatli o'yinlar, sport musobaqalari, ekskursiya va boshqalarni o'tkazish, shuningdek, sayrlar davomiyligini oshirish tavsiya etiladi.

Sog'lomlashtirish jarayoni samarali bo'lishiga erishish uchun kun tartibiga bolalarning ochiq havoda maksimal darajada bo'lishlari, yoshga mos uyqu va dam olishi nazarda tutiladi.

### **Yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalilaniladigan anjom va jihozlar:**

suv, loy va qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar va h.k;

qo'l yuvish uchun suv, bir martalik sochiqchalar (*salfetka*), chiqindilar uchun chelak va h.k ;

nafas gimnastika o'yinlari uchun jihozlar (*aylanalar, qog'oz pirpiraklar, lentalar*) va h.k;

voqeaband va teatrlashtirilgan o'yinlar uchun jihoz va qo'g'irchoqlar va h.k;

sport o'yinlari uchun jihozlar (*xalqalar, keglilar, badminton, arqonchalar, har xil kattalikdagi to'plar* va h.k);

stol bosma o'yinlari va h.k;

tabiat qo‘ynida mehnat qilish uchun kerakli jihozlar to‘plami (*kurakcha, belkurak, supurgi, hokandoz, xaskash, suv sochadigan jo ‘mrakli chelakchalar va h.k*);

qo‘l mehnati uchun kerakli ashyolarning qog‘oz qutilarda bo‘lishi (*rangli va rangsiz qog‘ozlar, bo‘yoq, plastilin andozalar, bo‘yash uchun kitobchalar, sochiqchalar va h.k*);

badiiy adabiyotlar;

teatr uchun turli sahna va jihozlar (*to‘shama, shirma, pardalar va boshqa atributlar*).

Maydon va ayvonchalarga olib chiqiladigan jihozlarning xavfsizligi (*singan, o‘tkir qirrali va teshilgan joylari yo‘qligi*) tekshirilib, har kuni sayrdan keyin yuviladi, quritiladi va quti yoki savatlarga joylanadi. Sayrdan so‘ng har bir jihoz ko‘zdan kechiriladi.

Sayr va o‘yinlardan so‘ng ayvoncha, maydoncha va bolalar uychalari tozalanadi, suv bilan yuviladi.

Qum tozalanib, elanib, nam holatda saqlanishi ta’milnadi. O‘yindan so‘ng qum usti g‘ilof bilan yopiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida yozgi sog‘lomlashtirish davriga tayyorgarlik barcha xodimlar tomonidan o‘z lavozim vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

## “Tasdiqlayman”

-maktabgacha

ta’lim tashkiloti direktori:

2025-yil

—sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining yozgi sog‘lomlashish ma’lumotlari uchun olib boriladigan ishlar  
REJASI

T/R	Ish mazmuni	Muddat	O’tkazish shakli	Kutilgan natija
<b>Umumiy tashkillyot</b>				
1	Yil davomida olib borilgan pedagogik - psixologik ishlar hisoboti.	Oy davomida Psixolog	Yozma	Sarhisob
2	MTT dagi olti yoshlilar bilan yil davomida olib borilgan ishlar hisoboti	Hafta davomida Psixolog	Yozma	Sarhisob
3	Psixolog yillik ish rejasini pedagogik kengashda ko‘rib chiqish va muhokamadan o’tkazish.	Yil davomida Psixolog	Tahlil muhokama	Yillik vazifalarni belgilash
<b>Shaxsiy tashkillyot filaktika</b>				
4	MTT ga yangi qabul qilingan tarbiyalanuvchilarni MTT ga moslashuv (adaptatsiya) davriga ko‘maklashish	Yil davomida	Psixolog tarbiyachi Ota-onalar	Tarbiyalanuvchilar ning MTT ga tez moslashuvini ta’minalash
5	"Yozgi sog‘lomlashtirish" Tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatini tahlil qilish	Yoz davri mobaynida Har hafta	Musiqo rahbari Tarbiyachi psixolog	O‘yin tarzida
<b>Metodik kun</b>				
6	Yangi 2025-yili uchun tayyorgarlik	Augst oyi oxirlari	Psixolog	Yillik reja asosida
				Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik namunadagidek tashkil etish

**-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining “Yozgi sog‘lomlashtirish”  
davri kichik guruhlar uchun  
ISH REJASI**

Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Faoliyat mavzusi	Vaqti	Kuni
Iyun Baxtli bolalik	1-hafta Baxtli bolalik	“Kayfiyat” Fonematik idrokn ni va nutq eshituvini rivojlantirish qaratilgan o‘yinlar		
	2-hafta Gullar va qushlar	“Mexmonlilik” Sirlig‘aluvchi tovus nutqqa o‘vishni		
	3-hafta Tabiat qo‘ynida	Men qaynaydi “Zebon” ni o‘sishini		
	4-hafta Ertak qaxramonlari bizni mexmonimiz	“Mehmonlar” o‘yivi” “Ajoy” o‘yini		
	1-hafta Yoz o‘tmoqda soz	“Salomlashish” “O‘sningi tanla”		
Iyul Quvnoq yoz	2-hafta Sport salom garovi	“Judayam zo‘rman” “Futbol” o‘yini		
	3-hafta Kutubxona	Kim aytdi?		
	4-hafta Iyul quvrami	“Men bajara olaman!” “Mening kelajagim” rasmi		
	1-hafta Vitaminlar	“Men nimani yaxshi ko‘raman?”		
	2-hafta Buni bilishimiz kerak	“Ziyarak bo‘l” o‘yini “Polizda” o‘yini		
Avgust Quvnoq va sog‘lom bolalar	3-hafta O‘ynaymiz quvnaymiz	“Kim diqqatli” o‘yini Harakatli o‘yin: “uchar sharlar”		
	4-hafta Zavqli yoz	“O‘yinchoqni puflab ber” o‘yini		
		“Sharcha teshildi” o‘yini		
		“Intervyu”		
		O‘yinchoqni so‘rab ol”		

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.*

*Zokirjon Admin bilan*

*+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.*

*22 listdan iborat yoz davr psixolog ish rejasini to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.*



**Narxi: 20 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@maktabgacha\_tt**

**To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**